

**TURLI TIK MINTAQALARDA TARQALGAN ASAL-SHIRALI
VA PERGALI O‘SIMLIKLAR VA ULARNING ZAHIRALARI.****Andijon Davlat Pedagogika instituti****Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti****Biologiya yo‘nalishi talabasi****Dadajonova Bahoroy**

Kalit so‘zlar: nektar, perga, changchi, changchi, chetdan changlanish, vitamin, aminokislotalar, asalari zahari, asalari suti.

Ключевые слова: Нектар, перга, пыльца, опылитель, перекрестное опыление, витамин, аминокислоты, пчелиный яд, маточное молочко.

Key words: Nectar, bee bread, pollen, pollinator, cross-pollination, vitamin, amino acids, bee venom, royal jelly.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Asal-shirali va pergali o‘simliklarning tasniflanish sistemasi qaysi mintaqada tarqalganligi tarkibidagi gulchangi va perga miqdori haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данном тезисе представлены сведения о классификации медоносных и пыльценосных растений, регионах их распространения, а также о количестве содержащейся в них пыльцы и перги.

Annotation: This thesis provides information on the classification of nectariferous and pollen-bearing plants, the regions where they are distributed, and the amount of pollen and bee bread they contain.

Asal-shirali va pergali o‘simliklar ko‘p chilik parda qanotlilar o‘simliklar balki insonlar hayotida ham katta ahamiyatga ega. Hasharotlar va odamlar asal bilan oziqlansa o‘simliklar asalari va unga o‘xshash hasharotlar bilan changlanadi va hosildorligi ancha ortadi. Chetdan changlanuvchi asal pergali



o'simliklarda hasharotlarni jalb qilish uchun turli moslab ishlari mavjud bo'ladi masalan: turli hidlar, gullari ko'rimli va chiroyli bo'lishi va h.k. Hozirda asal, asalari zahari va suti tarkibida inson organizmi uchun o'ta muxim bo'lgan 70 ga yaqin fermentlar, vitaminlar, gormonlar, minerallar va boshqa kimyoviy moddalar borligi aniqlangan. Ma'lumki, asalarilarning ozuqa bazasini o'simlik gullaridan ajraladigan gul shirasi (nektar) va gul changi (perga) tashkil qiladi.

Respublikamizda asalarilar uchun asosiy ozuqa manbaini katta maydonlardagi paxtazorlar, bedazorlar, kanop paykallari, poliz ekinlari, mevali bog'lar, manzarali o'simliklar va albatta tabiiy o'tloqlar tashkil etadi. O'zbekistonda 1000 turga yaqin asal-shirali o'simliklar uchraydi. Ularning ko'pchiligi tabiiy xolda o'suvchi o'simliklardir. Ulardan 600 tasi nisbatan ahamiyatli asal-shirali o'simliklar hisoblanadi. Asalarilarni eng ko'p gul changi bilan ta'minlaydigan o'simliklarning soni tabiiy va madaniylari bilan birga 50 tadan ortiqroq, xolos.

Quyida Asal-shirali va pergali o'simliklarni bir nechitasi bilan tanishib chiqamiz:

Gulxayri va tog' giyohlari

Gullash davri: may – iyul

Asal miqdori: 1 hektardan 50–70 kg

Asali: to'q rangli, xushbo'y

O'ziga xosligi: dorivor qiymatga ega.

Tog' piyoz (Allium)

Gullash davri: iyun – iyul

Asal miqdori: 1 hektardan 100–150 kg

Asali: to'q rangli, o'tkir hidli

O'ziga xosligi: biroz o'tkir ta'mli asal, dorivor sifatlari kuchli

Kekik (Chabrets)

Gullash davri: iyun – iyul



Asal miqdori: 1 hektardan 80–120 kg

Asali: oltin rang, kuchli hidli

O‘ziga xosligi: yuqori darajada dorivor, antibiotik ta’siriga ega

Oqquray (Melilot, yovvoyi beda)

Gullash davri: iyun – avgust

Asal miqdori: 1 hektardan 200–300 kg

Asali: och sariq, tiniq, uzoq vaqt suyuq turadi

O‘ziga xosligi: dorivor, asalarilar eng ko‘p yoqtiradigan o‘simliklardan biri

Akatsiya (oq)

Gullash davri: may

Asal miqdori: 1 hektardan 800–1000 kg

Asali: mutlaqo tiniq, suyuqligini uzoq vaqt saqlaydi

O‘ziga xosligi: dunyoda eng mashhur va qimmatli asal manbalaridan biri

Beda

Gullash davri: iyun – avgust

Asal miqdori: 1 hektardan 100–200 kg

Asali: och sarg‘ish, tez kristallanadi

O‘ziga xosligi: chorvachilikda ham foydali, asali to‘yimli

Karashka (Raps Colza)

Gullash davri: aprel – may

Asal miqdori: 1 hektardan 50–100 kg

Asali: oqsimon, yumshoq, tez kristallanadi

O‘ziga xosligi: oziq-ovqat va shirinlik sanoatida ko‘p ishlatiladi.

Bu o‘simliklar tarkibidagi asal va perga miqdoriga qarab 4 guruhga bo‘linadi:

1. Asalarilar ko‘proq nektar va kamroq perga yig‘adigan asal-shirali va



pergali o'simliklar

2 Asalarilar nektar va pergani teng miqdorda yig'adigan o'simliklar

3. Asalarilar ko'proq pergani va kamroq nektarni yig'adigan pergali va asalshirali o'simliklar

4. Asalarilar faqat perga yig'adigan pergali o'simliklar. O'simliklardab ko'p

miqdorda asal olish uchun ularni gullash davriga etibor berib bir maydonga

ketma-ket gullaydigan o'simliklarni ekish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova F.F. "Dorivor o'simliklar resursshunosligi" Toshkent 2023yil.

O'quv uslubiy qo'llanma.

2 "O'zbekiston asalarichilar uyushmasi" rasmiy sayti 2024yil.

3 Yuldashev A.S. Tojiboyev M.U. " Botanika resursshunosligi" o'quv uslubiy majmua. Andijon 2018yil.

4 Turniyozova N.R. "Samarqandning tog' yaylovlarida tarqalgan asalchil o'simliklari" ilmiy maqola 2024yil.

